

## **TA'LIM XIZMATLARI BILAN MEHNAT BOZORI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

***Muftaydinov Qiyomidin***

*Andijon mashinasozlik instituti "Iqtisodiyot"  
kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori*

***Turgunova Tursunoy***

*Andijon mashinasozlik instituti magistranti*

Dunyoda globallasuv jarayonlarining borgan sari chuqurlashib borishi davlatlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy standartlarni tobora takomillashuviga olib kelmoqda. Bunga misol qilib, mehnat bozorida ish beruvchilar tomonidan yuqori malakali kadrlarning bilim, ko'nikma va tajribalariga qo'yiladigan talablari ham ortdi. Ushbu vaziyat jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida biznes yuritish, korxonalar faoliyatini amalga oshirishning tashkiliy jihatdan mukammallashtirib bormoqda. Natijada oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonlariga ish beruvchilar tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy va iqtisodiy standartlar ham takomillashdi.

Ta'lim mamlakatni rivojlanishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biridir. Mahsuldorlikni oshirish va odamlarning nafaqat ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini yaxshilash, balki sifatli ish bilan ta'minlashda ham asosiy o'rinni egallaydi. Ta'lim darajasi, ishchi kuchiga ham individual, ham milliy darajada aniq ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, samarali siyosat ishlab chiqish, usullarni tushunishga bog'liq holda ta'lim tendentsiyalari va mehnat bozori tendentsiyalari o'zaro bir biriga bog'liq bo'lib, shaxsni shakllantirishda xizmat qiladi.

Umuman olganda, yuqori darajadagi ta'lim, shaxslarning mehnat bozoriga yaxshiroq kirishi uchun imkoniyatlarni kengaytiradi va ularni ishsizlikni bartaraf etishga yordam beradi.

Tahlillarga ko'ra, ishchi kuchining kasbiy mahoratlarini oshirishda unga yetarli darajada kasbiy bilim berish lozim bo'ladi. Bilim bu turli manbalar orqali tegishli sohaga oid bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtirish hisobiga shakllangan axborot hisoblanib, oliy o'quv yurtlarida o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda yuqori saviyada qo'llay olgan talabalarning ishchi kuchi sifati yuqori darajada baholanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy bilimlari va malakalarni shakllantirishda iqtisodiyotning istalgan sohasi uchun "asosiy ko'nikmalar"ni shakllantirishga ustuvor ahamiyat beriladi. Mamlakatimizda vertikal va gorizontol tafovutlar mavjudligiga qaramay, oliy ma'lumot iste'molchilar uchun foydalidir yangi bilimlarni egallash imkoniyatlarini

kengaytirishga qaratilgan va bu amaliyot jarayonida asosiy kasbiy malakaga ega bo'lgan bitiruvchilardir qisqa vaqt ichida yangi bilimlarni egallash imkoniyatlarini oshirish orqali mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati beradi.

Taklif etilayotgan oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori takomillashuvini chuqurlashtirish mexanizmi oliy ta'lim muassasalarining marketing bo'limlari bilan ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarning kadrlar bilan ishlash bo'limlarining funktsiya va vazifalarini bandlikka ko'maklashish markazlari orqali o'zaro muvofiqlashtirishga asoslanadi. Bunda korxonalar yoki tashkilotning kadrlar bilan ishlash bo'limi ish beruvchining faoliyati yo'nalishidan kelib chiqqan holda kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishi va muntazam ravishda ularni takomillashtirib borishi lozim bo'ladi. Ishlab chiqilgan lavozim bo'yicha nomzadlardan talab etiladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar ish beruvchining rasmiy web-sayti (agarda mavjud bo'lsa) va bandlikka ko'maklashish markazlariga taqdim etilishi lozim bo'ladi. Jumladan, ish beruvchining biron bir oliy ta'lim muassasasi bilan o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shartnomada ko'rsatilgan bitiruvchilarni ishga qabul qilish punkti bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talabnoma oliy ta'lim muassasasi rahbariyatiga taqdim etilishi zarur bo'ladi.

Mehnat bozorining yetarli miqdorda bitiruvchilar kutgan ish o'rinlarini taklif eta olmasligi ko'plab bitiruvchilarning universitetdagi ta'limlari uchun cheklangan daromad olishlarini anglatadi. Iqtisodiy ma'noda esa bu, vaqt va sarmoyaning bekorga sarflanganligini anglatadi. Ushbu xarajatlarning narxini kim qoplaydi? Oliy ta'lim muassasalarining o'ziga ham zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'z missiyasi nima bo'lishi kerakligi haqida chalg'igan holda, ular tobora ko'proq ichkariga intilishadi va tobora ko'proq sifatsiz kurslar va darslarni taqdim etadilar. Aynan shu savolni hisobga olgan holda biz talab tomoniga e'tibor qaratdik, chunki yuqorida ko'rsatilgan omillar bu asosiy muammo bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Biroq, agar biz ta'lim muassasalari va tizimlari va mehnat bozori ijtimoiy jihatdan qurilgan deb faraz qilsak, unda nima uchun ushbu global tendentsiyalar nashrda muhokama qilinayotgan mamlakatlarda turli yo'llar bilan ta'sir qiladi degan kengroq savol tug'iladi.

Talabalar mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda o'qishni tanlashlari zarur, ammo javob beradigan ta'lim yo'nalishlari tizimi yetarli darajada ta'minlanmagan. Ta'lim muassasalari, xilma xilligi va sifati jihatidan mehnat bozori ehtiyojlariga mos keladigan dasturlarni taqdim etishlari kerak. Bu ko'pincha markaziy hukumat tomonidan taklif qilinadigan imtiyozlarga bog'liq. Rag'batlar tartibga solish (masalan, universitet dasturlarini akkreditatsiya qilish shartlarini belgilash yoki

muassasalardan ma'lumot to'plash va nashr etishni talab qilish) yoki moliyalashtirish choralari (masalan, moliyalashtirishni ishlash ko'rsatkichlariga bog'liq qilish) shaklida bo'lishi mumkin.

Ta'limning mehnat bozoriga mosligini oshirish ta'lim tizimi va ish beruvchilar o'rtasida samarali hamkorlikni talab qiladi. Ish beruvchilar, shuningdek, mehnatga asoslangan ta'limni ta'minlash uchun ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilishlari kerak. Mehnatga asoslangan ta'lim, talabalarga zamonaviy asbob-uskunalar va ish amaliyotlaridan foydalangan holda ishga tegishli texnik ko'nikmalarni, shuningdek ish joyida muvofiq ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi.

Mamlakatimizda taklif etilayotgan ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori integratsiyalashuvini chuqurlashtirish mexanizmini amaliyotga joriy etilishi, mehnat bozorida yuqori malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni sifatli ishchi kuchi bilan ta'minlash imkonini beradi. Jumladan, Respublika mehnat bozorida ishchi kuchi sifati, tegishli lavozimlar bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlashga qaratilgan ko'p vaqt va xarajat talab qiluvchi tadqiqotlarni o'tkazish zaruriyatini kamaytirib, qisqa muddatli davrda mehnat bozorini yuqori malakali, sifatli ishchi kuchi bilan ta'minlash imkonini beradi.

Bitiruvchilar o'rtasida ishsizlikning ko'payishi mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik ko'rsatkichidir, u real iqtisodiyotga mutlaqo mos kelmaydi. Bitiruvchilarga bo'lgan talab va taklifdagi nomutanosiblikni, o'rtasidagi dinamik aloqalarni tuzatish, mehnat bozori va ta'lim sektori quyidagi yo'llar bilan mustahkamlanishi kerak:

- Mehnat bozori ma'lumotlar bazasi Universitetning kasbga yo'naltirish tizimiga bog'langan bo'lishi;
- Har tomonlama kardlarni rivojlantirish siyosatining amaldaligi;
- Ta'lim muassasalari uchun xususiy sektor resurslaridan samarali foydalanish;
- Talaba va o'quvchilar uchun maxsus ilovalar;
- Ilmiy ishlarni moliyaviy rag'batlantirish va grantlar olish;
- Ta'lim muassasalarida moslashuvchan va tejamkor boshqaruv tuzilmalarini o'rnatish va natijalar asosida xarajatlarni tizimini loyihalash va belgilangan natijalarni berish;
- Xarajatlarni taqsimlashning samarali mexanizmlari, shu jumladan turar joy xarajatlarini davlat tomonidan moliyalashtirishni qayta ko'rib chiqish kerak.

Ushbu tavsiyalar ko'rib chiqilsa, ta'lim xizmatlari va mehnat bozori integratsiyalashuvini takomillashtirish imkoniyatiga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 2015.
2. Hanover research (2014) Trends in Higher education marketing, recruitment and technology (ebook).
3. Boateng, Kwabia and Edward Ofori-Sarpong (2001). An Analytical Study of the Labour Market
4. Boateng, Kwabia and William Bekoe (2001). Wage Expectations among Final Year Students.

